

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025  
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh.Amil, A.G.Sabirdinov</b>	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati .....	6
<b>N.P.Farmonov</b>	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida .....	14
<b>N.A.Abdullayeva</b>	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari .....	18
<b>A.Eshniyazova</b>	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
<b>Z.Q.Eshanova</b>	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi .....	27
<b>J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev</b>	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi .....	33
<b>I.B.Xabibullayev</b>	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji .....	42
<b>E.G'.Qurbonova</b>	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi .....	47
<b>U.S.Ochilov</b>	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
<b>G.M.Kirgizova</b>	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari .....	58
<b>N.N.Sharipova</b>	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni .....	63
<b>S.A.Olimjonov</b>	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri .....	69
<b>I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev</b>	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

<b>Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova</b>	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
<b>Sh.Sh.Uralova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasaliş modelları.....	83
<b>I.F.Porubay, F.R.Nishanova</b>	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili... 90	
<b>M.S.Sayidazimova</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar .....	96
<b>X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova</b>	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
<b>Л.Мамедзаде</b>	
Приемы рифмообразования в паремнологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
<b>N.A.To'xtasinova</b>	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi .....	113
<b>Z.I.Akbarova</b>	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi .....	118
<b>Ё.М.Алмишева</b>	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии .....	121



UO‘K: 82-1/-9.82-131

“QISASI RABG‘UZIY” NING STRUKTUR TUZILISHI  
STRUCTURAL STRUCTURE OF “QISASI RABGUZIY”  
СТРУКТУРА “КИСАСИ РАБГУЗИ”

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o‘g‘li<sup>1</sup> <sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrasida o‘qituvchisiXabibullayev Ilhomjon Bahromjon o‘g‘li<sup>2</sup> <sup>2</sup>Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrasida o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiyotidagi dastlabki agiografik asarlarda biri hisoblangan “Qisasi Rabg‘uziy” asarining struktur tuzilishi haqida so‘z yuritilgan. “Qisasi Rabg‘uziy” anbiyolar tarixiga bag‘ishlangan mazkur asar boshqa manbalardan o‘zining tuzilishi jihatidan keskin farqlanadi. Bunday farqlanishga asosiy sabab asar yaratilishi va ijodkorning ijodiy niyati bilan bog‘liqdir. Asarning struktur jihatdan tuzilishini yanada yaxshiroq tushunish maqsadida Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari bilan qiyosiy jihatda tahlil etilgan.

**Abstract**

This article discusses the structure of the work *Qisasi Rabghuzi*, which is considered one of the earliest hagiographic texts in Eastern classical literature. Dedicated to the stories of the prophets, this work significantly differs in structure from other sources. The main reason for such distinction is related to the time of its composition and the author’s creative intention. To better understand its structure, the work is analyzed in comparison with Alisher Navoi’s *Tarixi anbiyo va hukamo*.

**Аннотация**

В статье рассматривается структура произведения «Кисаси Рабгузи», которое считается одним из первых агиографических трудов в классической восточной литературе. Это произведение, посвящённое историям пророков, значительно отличается по структуре от других источников. Основная причина такой особенности заключается во времени создания произведения и творческом замысле автора. Для более глубокого понимания структуры произведения, оно было сравнительно проанализировано с трудом Алишера Навои «Тарихи анбиё ва ҳукамо».

**Kalit so‘zlar:** sharq adabiyoti, agografik adabiyot, agiografiya, payg‘ambar, avliyo, tarixiy haqiqat, badiiyat, an‘ana.

**Key words:** eastern literature, agographic literature, agiography, prophet, saint, historical truth, art, tradition.

**Ключевые слова:** восточная литература, восточная литература, агиография, пророк, святой, исторический факт, искусство, традиция.

**KIRISH**

Ziddiyatli tarixiy muhit, diniy tafovutlar, ayrim mutaassibliklar xalqlar orasiga nizo solgan, talofatli urush va ixtiloflarni vujudga keltirgan bir sharoitda Rabg‘uziy turli el va yurtlarni iymon-u e‘tiqodga, ezgulik hamda yaxshilikka chorlaydi. Uning asari bu borada muhim dasturulamal vazifasini o‘taydi. “Muayyan asar badiiyati haqida gap ketganda, uning kompozitsion xususiyatlariga, badiiy mahorat haqida so‘z borganda shu boradagi mahoratga ayricha e‘tibor beriladi” [1.72]. Turkiy adabiyotdagi agiografik asarlarning eng birinchi mukammal namunasi bo‘lgan “Qisasi Rabg‘uziy” kompozitsion jihatdan mukammal qurilishga ega bo‘lgan asardir. Chunki har bir jamiyat o‘tmish merosini qayta ishlab, undan ijodiy foydalanadi. Meros bo‘lib qolgan yodgorlik o‘zi vujudga kelgan davrda qanday ahamiyatga ega bo‘lib, qanday baholangan bo‘lsa, keyingi davrda ham aynan shunday bo‘lmaydi, lekin “Qisasi Rabg‘uziy” asari bundan mustasno, deyish mumkin. Muallif asarning muqaddima qismida mazkur asarni yaratishdan maqsad nima ekanligini bayon etadi. Rabg‘uziyga qadar payg‘ambarlar hayotiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar yaratilgani, ammo ularning aksariyati, o‘quvchiga tushunarsizligi, shu bilan bir qatorda, mazkur

manbalarda xatoliklar mavjudligini ta'kidlaydi. "Ba'zi asarlar to'g'ri, ba'zilari noto'g'ri, ayrimlari nuqsonli, ba'zilarida kamchilik borligi" [2.232], bundan tashqari, zamon hukmdori Nosiruddin To'qbug'a ahillik, totuvlik, ozodlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri ham e'tiqodiy hamfikrlikda ekanligini bilgani uchun Rabg'uziydan payg'ambarlar haqida asar yaratishni so'raydi. "Emdi sanung zimmangdin chiqg'an, qalamungdin oqq'an, kitobatma saning, ibratma saning bo'lub, bizga "Qisas ul-anbiyo" bo'lsa, o'qumoqg'a keraklik, o'rganmakka yaroqlig' bo'lg'ay erdi, teb iltimos yanglig' ishorat bo'ldi ersa nechama o'zumni og'rilab nafs saqlamish bo'lub o'g'ur bo'lsin teb bu og'ir ishga o'g'radimiz" [3.11]. Eng asosiysi esa, muallifning o'zi ta'kidlaganiday, payg'ambarlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan kitob yozishga o'zida ham rag'bat mavjud edi. Shu sababli asar hozirgi kunga qadar kitobxonlar tomonidan mutolaa qilinmoqda. "Qisasi Rabg'uziy" payg'ambarlar tarixi haqidagi asar bo'lgani uchungina emas, balki mazkur obrazlarga yangicha nuqtayi nazar bilan qarash, e'tiqod va maslak adabiy janrlarga bog'langani uchun ham omma tomonidan yaxshi qabul qilindi va shuhrat qozondi" [4.13]. Rabg'uziy yashagan davrda she'riy asarlar yaratish tajribasining mavjud ekanligi va bu borada, davr ehtiyojidan kelib chiqqan holda, she'riy asarlar uchun ma'lum darajada nazariy bilimlarning rivojlangani ham tarixiy asarlarni o'rgangan olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Kam miqdordagi nasriy asarlarning mavjudligi, aynan bu turdagi asarlar uchun nazariy ma'lumotlar deyarli to'liq shakllanmagan bir davrda "Qisasi Rabg'uziy" asarining yaratilishi muhim hodisa bo'ladi. Shu sababli ijodkor "o'qimoqqa yaroqli" asar yaratishga kirishadi. Bunday asar esa badiiy jihatdan mukammal hamda barcha uchun tushunarli bo'lishi lozim edi. "...yozuvchi ijod onlaridayoq o'qish jarayonini ham nazarda tutadi. Ayni shu narsa – o'qish jarayonining ijod jarayoniga ta'siri asar kompozitsiyasida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Kompozitsion jihatdan yaxshi tashkillangan asardan o'quvchi to so'nggi nuqtaga qadar yangi-yangi mazmun qirralarini kashf etib boradi, o'qish davomida turfa hissiy holatlarni qalbdan kechiradi, aqliy yoxud ruhiy toliqish, zerikish unga tamomila yot bo'ladi" [5.180]. Ijodkorning estetik dunyoqarashi ilohiy qissalarni bayon etishda "poetik o'zlashtirish"da ko'zga tashlanadi. Eng avval, Qur'onga, so'ng hadislarga va o'zigacha bo'lgan davrda yaratilgan payg'ambarlar tarixiga oid asarlarni sinchiklab o'rgangan ijodkor mukammal asarni yaratishga muvaffaq bo'ladi. Asarga Qur'oni Karim va hadislar, tarixiy manbalar, xususan, Abu Is'hoq Nishopuriyning "Qisas ul-anbiyo"si hamda xalq og'zaki ijodidagi ayrim faktlar asos qilib olingan" [6.610], shu sababdan ham mazkur asar o'z davri uchun katta yutuq bo'lib, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ijodkor asarni yaratishga kirishar ekan, yaratilajak asar Nosiruddin To'qbug'a taklifi va talabiga ko'ra "Qisas ul-anbiyo" deb nomlanishi lozim edi. Rabg'uziy asarni yakunlar ekan, uning "Ertikliga o'ngay, istakliga tebray bo'lsun teb "Qisasi ar-Rabg'uziy" ot berdimiz" [3.11], deya ta'kidlaydi. Lekin bu asar xalq orasida "Qisasi ul-anbiyoiy turkiy" nomi bilan mashhur bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, keyingi davrda turkiy tilda yaratilgan shu turdagi asarlar uchun namuna vazifasini bajardi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Asar muqaddimasining o'ziyoq prolog hisoblanib, unda Rabg'uziy asarni nima uchun yaratgani, maqsadi va nima haqida ekanligini aynan keltiradi: "Tekma yerda tekma kim ersada bo'linur ba'zisi mustaqim bor, ba'zisi nomustaqim. Bir onchasi muqarrar va bir onchasi mo'tabar bor. Bir ozining so'zlari kesuk bor, bir ozining maqsudalari o'ksuk. Emdi sanung zimmangdin chiqg'an, qalamungdin oqq'an, kitobatma saning, iboratma saning bo'lib bizga "Qisas ul-anbiyo" bo'lsa..."[3.11]. Keltirilgan jumlar asarning keyingi qismlarida o'z isbotini topib boradi. "Prologlar mazmun-mundarijasiga ko'ra turlicha bo'ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmuni muxtasar bayon etish... prologlar turli badiiy-estetik maqsadlarga xizmat qiladi: o'quvchini asar voqeligiga olib kirish... muayyan emotsional-hissiy holat hosil qilish va har qanday muqaddima emas, faqat badiiy muqaddimagina prolog sanalishi mumkin" [7.119]. Demak, "Qisasi Rabg'uziy" asarining prolog qismi o'quvchini keyingi o'rinlarda tasvirlanadigan voqealarni qabul qilishga qaratilgan badiiy xarakterdagi qism bo'lgani uchun ham asarning kompozitsion boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Muallif tomonidan prologlarning Qur'on va hadislar asosida berilishi, uning ta'sir kuchini oshirish bilan bir qatorda, kitobxonni fikrni jamlash va mushohada yuritishga majbur qiladi. "Va, albatta, Yunus mursal payg'ambarlardandur" [3.55]. Prologlarda Qur'onda nomlari zikr etilmagan payg'ambarlar esa nasab jihatidan bayon etilgan holda berib boriladi. Bu qissa va hikoyalarning majoziy ma'nodagi kaliti hisoblanadi. Ijodkor bu yerda qahramonni kitobxonga yaqinlashtirish maqsadida tanishtirib ham o'tadi: "Qobildan kezin yuz o'tuz yil kechdi, Shis tug'urdi.

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Shis sabroniy tilicha “hibatulloh” temak bo‘lur, ya’ni tengri atosi. “Hobilni oldim ersa aning o‘rnig‘a Shis berdim” [3.33]. Shu sababdan ham kitobxon asardagi shaxslarni adashtirmaydi, chunki ular haqida ma’lumotga ega bo‘lgandan so‘ng keyingi voqealar boshlanadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Asar syujetiga xos bo‘lgan voqealar ko‘p jihatdan Qur‘oni Karimga tayanadi. “Diniy va tarixiy rivoyatlar o‘zbek adabiyotida didaktik shaklda berilishi Islom tarixi va Qur‘on ma‘nolarining bayonini yengillashtiradi” [8.11]. Rabg‘uziy ularni o‘z dunyoqarashi hamda tajribasi asosida qayta ishlagan, qissalarni badiiy tafakkuri bilan boyitgan. Ayrim o‘rinlarda xalq og‘zaki ijodiga ham murojaat qilgan. “Muallif Qur‘ondagi suralarning nomlanishidan ibrat olib, nabiyilar ismi bilan bir tizimda maskan, kitob, jonzot nomini qissalarga birlashtirib, “Ka‘ba qissasi”, “Tavrot Qissasi”, “Chumoli qissasi” deya tashkillashtiradi” [9.26]. Asardagi sarlavhalarning bunday nomlanishi kitobxonni o‘ziga jalb etadi. O‘quvchi sarlavha orqali, dastavval, Qur‘on va hadisda keltirilgan voqealarni xayolida gavdalantiradi. Mazkur sarlavhalarning ko‘pi Qur‘onda keltirilgan suralar nomi bilan atalsa, ayrimlari keltirilgan qissadagi obrazlar bilan ham ataladi. “Ka‘bani bunyod qilish”, “Ka‘baning bitishi”, “Otlar voqeasi” kabi sarlavha ostidagi voqea-hodisalar esa bayon etilayotgan qissalarning mohiyatini ochib berish maqsadida qo‘llanilgan. Bunday nomlanish asosida muallif o‘z maqsadlarini ham bayon etadi. Asarning boshqa shu turdagi manbalardan farqli jihati, muqaddimadan so‘ng ko‘zga tashlanadi. Muallif buni quyidagicha izohlaydi: “Izzi azza va jalladan tamom bulg‘ug‘a tavfiq tilab kitob boshladimiz. Mundan maqsud payg‘ambarlar qissasi edi, valekin Odamdin burunroq yaratilgan bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortuqroq bo‘lgay deb tartib uzra yaratilganlarning og‘oz qildimiz” [3.11]. Bu turdagi asarlarda voqea-hodisalar to‘g‘ridan to‘g‘ri Odam alayhissalomning yaratilishidagi ibratli voqea-hodisalar bayoni bilan boshlanadi. Rabg‘uziy esa olam va odam yaralmasdan burungi davrdan boshlaydi, go‘yoki ijodkor kitobxonni bu bilan asosiy maqsad payg‘ambarlar hayoti va faoliyatini o‘rganish, bu orqali ma‘rifatga erishishga tayyorlab boradi. “Izzi azza va jalla qamug‘da ashnu bir gavhar yaratdi. Ul gavhar yaratdi, ul gavharga haybat nazari qildi ersa ul gavhar erurdi. Suv bo‘ldi ersa anda kezin yelni yaratdi. Suv uza tushdi ersa qum urdi ko‘puklandi. Ul ko‘pukdin tutun og‘di, ul tutundin ko‘kni yaratdi... ul suv mavlo taoloning haybatidin qaynab kuyuklandi. Ul ko‘pikdin Ka‘ba o‘rnicha yer yaradi” [3.12]. Ijodkor agar tarixning o‘zini yozganida edi, asar sof diniy ruhni aks ettirgan bo‘lar edi. Shu sababdan ham Rabg‘uziy o‘z davrining ilg‘or ziyolisi sifatida odamlarni ma‘rifatga yetaklamog‘da. Dunyo qanday yaraldi va uni yaratishdan maqsad nima? Insonni yaratib, nima uchun uning qalbini ko‘zguga aylantirdi? Dunyoning mohiyati nimadan iborat? Payg‘ambarlar nima uchun yuborildi? kabi savollarga o‘z asarida javob berishga harakat qiladi. Bu o‘z navbatida asarning badiiyligini yanada oshirishga xizmat qiladi. “Qisas ul-anbiyo” tipidagi asarlar, mavjud voqelikka tayanib, payg‘ambarlar tarixini bayon qilgan bo‘lsa, Rabg‘uziy sof diniy voqea-hodisalarni badiiylikka yo‘g‘rilgan holda tasvirlaydi. Shu sababdan bu asar ham badiiy, ham tarixiy, ham diniy manba sifatida hozirgacha sevib mutolaa qilinmog‘da. Kompozitsion jihatdan asar mukammal syujetga ega bo‘lib, “Qisasi Rabg‘uziy” va umuman olganda, “Qisas-ul anbiyo” tipidagi barcha asarlarda xronikali syujet yetakchilik qiladi. Rabg‘uziyning asarida dunyoda inson yaralmasdan oldin ham hayot bo‘lgani va yer yuzida yashagan insongacha bo‘lgan maxluqotlar o‘z qilmishlari sababli halok qilinganligi aytib o‘tiladi. “Savol: farishtalar Odamni taqi o‘g‘lonlarini ko‘rmishlari yo‘q erdi va fasod qilganlarin, qon to‘kkanlarin nadin bildilar? Javob: Odamdin ko‘rmishlari yo‘q erdi, ammo Jin ibn al-Jonni ko‘rmish erdilar, ma‘siyatlarin bilur erdilar. Alarg‘a qiyos qilib so‘zladilar” [3.15]. Ijodkorgacha va undan keyingi davrda yaratilgan asarlarda bu voqea haqida deyarli fikr bildirilmagan, diniy manbalardagina bu haqda ma‘lumot keltirilgan, xolos. Rabg‘uziy bu jarayonda fikrini isbotlash maqsadida iqtibos badiiy san‘atiga murojaat etadi: “Agar U xohlasa, sizlarni (yer yuzidan) ketkazib, (o‘rningizga) yangi bir xalqni keltirur” [10.436]. Qissalarda berilayotgan voqea-hodisalardan xulosa chiqargan holda, mazkur qissalar vositasida ko‘tarilgan masalalarni kitobxonga odob-axloq, o‘g‘it sifatida tushuntiriladi. Insoniyatni ma‘nan va jismonan tanazzulga olib boradigan narsalar, yo‘ldan ozdiradigan, jirkanch va manfur ishlarni qilishga undagan voqea-hodisalar haqida gap borganda ijodkor go‘yo keyingi avlodlarni bu yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lganday taassurot uyg‘otadi. “Asardagi voqealarning mohiyati nimadan iborat, ular qayerdan kelib chiqqan va qanday qilib asarda tartibga tushadi” [11.3-5] mana shunday tartib asosida yaratilgan asarni qo‘liga olgan kitobxon unda keltirilgan qissalarni tafakkur va tasavvur qilib, chuqur mushohada asosida o‘qiydi. “Savol-

javob”ning maqsadi va vazifasi, aksariyat holatlarda, ma’lum voqeani, musulmonlik qoidalari va udumlarini insoniyat hayotiga tatbiq qilish yoki ularni cheklash, ularning tatbiq etilishi ta’qiqlanishiga asos bo’lgan omillar, voqealar tizimiga aniqlik kiritish, kitobxonda o’z davrida ham, bugungi kunda ham savolga o’rin qoldirmaslikka harakat qilish kabilardan iborat” [4.34]. Ijodkor asarni yaratish jarayonida qissalar tarkibiga ko’plab kichik janr va shakllarda mohirlik bilan foydalanganiki, keyinchalik mazkur janr hamda shakllar alohida asar darajasigacha o’sib chiqqan. Buni latifa, hikmat, munojot singari janr va shakllarda ko’rishimiz mumkin. Ularni birlashtirganda yana yagona syujet liniyasining vujudga kelishi ham ijodkor mahoratidan darak beradi. “Asar g’oyasi payg’ambar-podshohlar haqidagi hikoyatlar orqali yoritilgan. Asarda rivoyat, hikoyat, latifalar orqali bashorat, savol-javob, hadis, foyda, aydi, aymishlar singari adabiy-tanqidiy tushuncha va istilohlar sarlavhachalar tarzida qo’llanilgan” [12.25]. Mazkur janrdagi voqea-hodisalarning syujet liniyasini bog’lab turgan voqea ikkinchi faslda aytib o’tilgan “Nuri Muhammadiy” nazariyasi bo’lib, barcha voqea-hodisalar shuning ta’sirida harakatga keltiriladi. “Abdulloh ovg’a chiqib, yonib kelurinda, ul chodirni ko’rdi. “Bu ne erkan, ko’rayin” teb chodirg’a keldi. Fotimai Shomiya Abdulloh elindagi nurni ko’rdi. Rag’bat qilib utru yurdi. Abdullohni chodirg’a tushurdi” [3.103]. Shu voqeadan so’ng Rabg’uziy asarning mohiyatini Fotimai Shomiyaning ruhiy holatini bayon etish jarayonida ochib beradi. “Fotima ul nurni Abdulloh elinda ko’rmadi, aydi: “Ey Abdulloh, Shom maliklari mani qo’ldilar. Mol tovar arz qildilar. Man ularni qabul qilmaddim. Man saning uchun kelmay erdim. Ul elingdagi nur umidida kelib erdim, emdi ul nurdan mahrum qoldim”, teb oh teyu ingranu otlanib yo’lg’a ketti.” Bu orqali asardagi Muhammad alayhissalom tavalludigacha bo’lgan voqea-hodisalar aynan “Nuri Muhammadiy” ta’sirida yuzaga kelganligini ko’rishimiz mumkin.

Asarda keltirilgan qissalarning hajmi turlicha bo’lib, masalan, “Lut” haqidagi qissa bir necha sahifadan iborat bo’lgan holda, “Yusuf” qissasi nisbatan keng bayon etilgan. Mazkur (“Yusuf”) qissa kompozitsion jihatdan mukammal shakllantirilgani sababli ijodkorlar tomonidan hozirgi kunga qadar bu qissaga qayta-qayta murojaat qilinmoqda. Ijodkor kompozitsiyaning unsurlaridan hisoblangan portretni berish orqali o’quvchini ham hayajonga soladi: “Mavlo ko’rkni ming ulush qildi, to’quz yuz to’qson to’quzini Yusufg’a berdi, bir ulushini tugal olamlarg’a berdi” [3.101]. Qissa boshida Yusuf alayhissalomning statik portreti berilsa-da, muallif bu bilan qanoatlanmay voqea-hodisalar bayonida, o’zaro suhbatlarda xatti-harakatlar orqali portretni tasvirlab boraveradi. Natijada, mazkur qissa tarkibida ham statik, ham dinamik portret yuzaga keladi. Buni Misr xalqiga kelgan qurg’oqchilik lavhalarining berilishida ko’rishimiz mumkin: “Anborda oshlig’ qolmadi. Yangi oshlig’ bo’lurg’a to’rt oy qoldi. Yusuf alayhissalom Misr xalqiga niqob ko’turdi, yuzun ko’rguzdi”. Xalq uning jamolini ko’rgandan so’ng yangi hosil pishib yetilgunicha ochlikni unutadi. Mana shunday kichik lavhalar orqali asarning badiiy qiymati yanada oshgan. O’quvchi Qur’onda keltirilgan “Yusuf” qissasidan xabardor bo’lish barobarida muallif tomonidan Yusuf alayhissalom portretining o’ziga xos usulda berilishi natijasida tasvirlangan voqealarga shubha bilan qaramaydi. Yuqoridagi faslda aytib o’tilganiday ijodkorlar tomonidan payg’ambarlarning portretini mukammal keltirilishi shamoyil tipidagi asarlar uchun asos bo’lib xizmat qilgan. Butun boshli bir mamlakat aholisining Yusuf jamolini ko’rib ochlikni unutishi keyingi davr kishilari tomonidan bu voqeaning hayajon bilan qabul qilinishi so’z san’atining qudratini namoyon etadi. Kitobxon qissa boshida bunday tasvirlarga shubha bilan qaragan bo’lsa, uning yakunida bunga o’zi ham ishonch hosil qiladi. Buni qissa tarkibida “Muhammad ibn Shayboniy” bilan bog’liq kiritma voqeaning keltirilishida ham ko’rishimiz mumkin. Mazkur kiritma hikoya orqali muallif Yusuf va Zulayho o’rtasidagi ishqiy mojarolarning mazmunini kitobxonga tushuntirib berganday taassurot uyg’otadi. Ya’ni, Haqqa bo’lgan ishqning mohiyati ochib beriladi. Bundan tashqari, qissada “Shayx Zunnun Misriy”, “Xorun ar-Rashid” kabi qistirma voqealar Yusuf alayhissalomning hayoti va faoliyati jarayonidagi voqea-hodisalarni tushunishni birmuncha osonlashtiradi. Yusuf qissasida keltirilgan hodisalar esa badiiy qoliplash vazifasini bajaradi.

Qissada kompozitsiyaning unsurlaridan hisoblangan peyzajga ham alohida e’tibor qaratilgan. Buni quduqqa tashlab ketilgan Yusuf, savdogarlarning sahrodagi sarguzashtlari, Misr xalqiga kelgan qahatchilik natijasida ekin maydonlari va bog’larning qurishi bilan bog’liq lavhalarda ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, qissa tarkibida lirik chekinish sifatida keltirilgan “Bahoriyot”da ham peyzaj o’ziga xos tarzda bayon etilgan:

Kun hamalg’a kirdi ersa keldi olam navro’zi,



## ADABIYOTSHUNOSLIK

Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori buzi.

Kun kelu ming ko'rki ortib tirlur o'lmish jahon,

Tong badizlab naqshi birla bezanur bu yer yuzi [3.103].

Bunday lirik chekinishlar qissa tarkibida bayt, she'r, g'azal deb atalgan holda o'n olti joyda beriladi. Lekin mazkur lirik chekinishlar ham asar mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda bayon etiladi. Asarda she'r va g'azal tarzda keltirilgan lirik namunalarning deyarli barchasi turkiy tilda, bayt va ikkiliklarning aksariyati esa arab tilida berilib, undan so'ng muallifning o'zi ularning turkiy mazmunini ham bayon etadi. Lirik chekinishlarning keltirilishi asar ta'sirchanligini oshirish barobarida muallifning iste'dodini namoyon etadi. Shu bilan bir qatorda "Qisasi Rabg'uziy" turkiy adabiyotda lirik janrlarning taraqqiy etishiga ham xizmat qilgan.

Bundan tashqari, qissada dialoglarga alohida e'tibor qaratiladi. Yusuf va Yoqub alayhissalomlar, Yoqub va o'g'illari, Yusuf va akalari, Yusuf va savdogarlar, Yusuf va Azizi Misriy, Zulayho va Azizi Misriy, xususan, Yusuf va Zulayho o'rtasidagi suhbatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif mazkur dialoglarni shunday tashkillaydiki, kitobxon o'zini voqealar ichida tasavvur qiladi. Rabg'uziy dialoglarni nafaqat nasrda, nazmda ham beradi. Buni Zulayhoni malomat qilgan ayollarning Yusuf alayhissalomni ko'rganlaridan keyingi suhbatlarida ko'rishimiz mumkin. Kompozitsiyaning tarkibiy qismi hisoblangan xotima ham asarda o'ziga xos tarzda bayon etilgan. Xotima asar yaxlit holda olingan holda berilishidan tashqari, ko'plab qissalar va hikoyalar tarkibida ham uchraydi. Muallif bunday xotimalarni "Foyda" shaklida bayon etadiki, o'quvchi har bir qissa, hikoya, rivoyatdan tegishli xulosalar olishdan tashqari, keltirilgan voqea-hodisalarning mohiyatini ham anglab yetadi. Qissalarning hajmi ularning kompozitsion jihatlariga ta'sir o'tkazmagan. Katta hajmli qissalarda alohida berilgan portret, peyzaj, kiritma voqea, badiiy qoliplash, xotima, monolog, dialoglar kichik hajmli qissalarda ixcham holda, qissa mazmunidan va ijodiy niyat asosida beriladi. Muallif keltirayotgan voqea-hodisalar mazkur qissa tarkibiga olib kirish uchun qanchalik muvofiq yoki aksincha, qissa mazmuniga mos kelmasligi ijodiy yondashuvda ko'zga tashlanadi.

Asardagi voqealar ro'y beradigan zamon va makon, personajlar to'g'risidagi ma'lumotlar muallif tomonidan batafsil beriladi. "Lut ibn Hozar ibn Borih ibn Horon. Bu Lut yalavoch Ibrohim otasi qarindoshi, o'g'li erdi. Ibrohim yalavoch vaqtinda erdi, O'rdun yerinda. Ibrohim Falastin yerinda" [3.87]. Bunda o'quvchiga asarda ishtirok etuvchi qahramonlar, ular harakat qiladigan joy, to'qnashuvchi shaxslar va hodisalar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Badiiy asarda bosh konfliktni rivojlantirib, keyingi voqealarga turtki berishga jiddiy ko'maklashmasa-da, ko'pincha, asosiy voqea rivojining yo'nalishi hamda xarakterini oldindan aniqlashga xizmat qiladigan ekspozitsiyalar ham ijodkor tomonidan mahorat bilan berilgan. "Sora roziyallohu anho to'qson yashamish erdi. O'g'il – qizi bo'lmadi. Ibrohim alinda Muhammad Mustafoning nuri bor erdi. Sorag'a va'da qilmish erdi: "Bu nur sandin bo'lg'an o'g'longa teggay", deb. Qachon Ibrohim Xojarga qovushti ersa ul nur Xojar rahmiga bordi. Sora ko'rди, ul nur Ibrohimdin ketmish. O'fkasi keldi. Ul nurdin umidsiz qolmishiga qattig' kunilab, Ibrohimning yaqosin tutdi. Erining yaqosin ilk Sora tutdi. Odamdin to'g'oyat hech zillat tutmish yo'q erdi. Jabroil keldi, aydi: "Ey Ibrohim, Sorag'a ayg'il, sabr qilsun" [3.74]. Keltirilgan ushbu voqeada kompozitsiya shunday tashkillanganki, asar qahramonlarining, ya'ni Ibrohim alayhissalom, Sora va Xojarning ruhiy-psixologik holatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

<b>Ibrohim</b>	<b>Sora</b>	<b>Xojar</b>
Payg'ambar (ilohiy nur egasi)	Ayol	Joriya
Oila boshlig'i	Ilohiy nurning o'ziga nasib qilishini kutib yashagan farzandtalab qahramon	Homilador bo'lgani uchun raqibga aylangan qahramon
Kundoshlar orasida qolgan qahramon	Qasos niyatida yurgan kundosh	Birinchi zirak taqqan ayol
Farzandini sahroga tashlab kelgan ota	Umidsiz qolgan ayol	Ilohiy mo'jizalar guvohi bo'lgan ona

Maishiy muammolar, ya'ni kundoshlar orasidagi janjal ijtimoiy muammoga aylanib, kelgusidagi payg'ambarning, ya'ni insoniyatning taqdiri uchun kurashga aylanib ketadi. Oila boshlig'i bo'lgan Ibrohim alayhissalom sirdan qaralganda Soraning "talabi"ga ko'ra o'z farzandini sahroga tashlab keladi. Aslida bu ilohiy farmon bo'lib, Ka'baning qurilishi, zam-zam bulog'ining

ochilishi, haj qilish vaqtida bajariladigan ayrim amallarning yuzaga kelishi, arablarning Makka atrofida birlashishlari uchun zamin vazifasini bajaradi. Otaning o'z farzandini kimsasiz joy (sahro, o'rmon, tog', qir)ga tashlab kelishi keyinchalik boshqa asarlarga, xususan, xalq dostonlari va ertaklariga ko'chgan. Muallif faqat qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlash bilan cheklanib qolmaydi. Bunday bayon usuli orqali kitobxon ruhiyatiga ham kirib boradi. Asardagi boshqa qissalar tarkibidagi maishiy masala ijtimoiy muammo bilan ulanib ketishi Rabg'uziyning o'ziga xos ijodiy yondashuvi hisoblanadi. Bunday ijodiy novatorlik asar kompozitsiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Asarning har bir bobidagi qissa va hikoyalarda keltirilgan ekspozitsiyalarning deyarli hammasi to'g'ri ekspozitsiya (voqealar boshlanishidan oldin) bo'lib, kechiktirilgan (tugundan so'ng) va teskari (asar oxirida) ekspozitsiyalar deyarli uchramaydi. Yuqoridagi misolda keltirilgan Ibrohim alayhissalomning o'g'il farzandli bo'lishidan oldingi holatlari qissaning keyingi makon, zamon, qahramonlar hayotiga turtki bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, barcha qissalar, hattoki, qissa ichida kelgan hikoyatlar alohida olinganda mustaqil kompozitsion tuzilishga ega. Misol uchun, Ibrohim alayhissalom qissasidagi Ibrohim alayhissalomning farzandli bo'lishi, Sora va Xojar o'rtasidagi mojarolar, zam-zam bulog'ining ochilishi va uning atrofida yangi shaharning shakllanishi bilan bog'liq voqealar qissa tarkibidan yulib olinganda ham alohida kompozitsiyaga ega qissa sifatida qabul qilinadi. Rabg'uziy barcha keltirilayotgan hikoyatlarni to'lig'icha asarning maqsadi va mazmuniga moslashtiradi. "Asardagi hikoyatlarni quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mutasavvufilar va tasavvuf axloqiga oid hikoyatlar.
2. Axloqiy-talimiy hikoyatlar.
3. Ijtimoiy mazmundagi hikoyatlar.
4. Mo'jizaga oid hikoyatlar" [4.13].

Shu bilan bir qatorda, Qur'ondan olingan oyatlar bo'lganligi sababli asarda sa'jning go'zal namunalarini uchraydi: "Rabg'uziy payg'ambarning sa'y-harakatlarini, fe'llarini sa'jlash orqali yoritadi. Qur'onda mavjud sa'j namunalarini o'zbek adabiyotida salkam yetti asr ilgari munosib rivojlangani ko'rinib turibdi" [8.13]. Bu esa asarni tushunishni ham yengillashtirgan. Asarni o'quvchiga yaqinlashtirish maqsadida xalq og'zaki ijodidagi ertaklarda qo'llanilgan bayon usulidan foydalaniladi. Bu hikoyatlarning boshlanmasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Sodda va ravon til bilan boshlanuvchi hikoyatlar kitobxonning yodida qolgan va keyinchalik og'izdan og'izga o'tib "Qisasi Rabg'uziy" da keltirilgan hikoyatlar xalq og'zaki ijodida yangidan doston, hikoya, ertak ko'rinishida namoyon bo'lgan. Buning yorqin misoli sifatida "Yusuf va Zulayho" dostoni, "Qaldirg'och va ilon" ertaklarini keltirishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, xalq og'zaki ijodidagi bunday asarlarning bosh manbai agiografik asarlar hisoblansa-da, lekin to'g'ridan to'g'ri muqaddas kitoblardan olinmay, "Qisasi Rabg'uziy" va "Qisas-ul anbiyo" kabi asarlar orqali xalq og'zaki ijodida qayta shakllangan. Talimiy-tarbiyaviy qismlari folklor tarkibida yashay boshladi. Qur'oniy qissa va voqealarning kengroq yoritib berilishi va kengaytirilishi "Qisas ul-anbiyo" (katta agiografik asarlar) singari asarlarning maydonga kelishiga imkoniyat yaratdi.

Asarda Shayton Momo Havvoni aldab, taqiqlangan narsani yeyishga undagan va Momo Havvo tomonidan taqiq qo'yilgan narsa iste'mol qilingandan keyingi jarayon bilan bog'liq lavhalarning berilishida agiografik asarlardan ko'zlangan mohiyatni ochib berish xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi. "– Nima uchun Odamga bug'doyni yedirдинг. – Ey bor Xudoyo, Sening dargohingda yolg'on so'zlamaslar, deb o'yladim, shayton bir soatda yetmish marta ont ichdi. Unga bovar qildim, Sening karaming ulug'ligiga suyandim" [3.25]. Mazkur voqeadan so'ng Momo Havvo va Odam alayhissalom yumshoqlik bilan Jabroil vositasida yerga tushiriladi. Shaytonning bo'yniga esa tavqi la'nat osildi va jannatdan quvildi. Ularga (Momo Havvo va shayton) jannatdan chiqarilgani bilan birga amrga bo'ysunmaganliklari uchun jazo ham beriladi:

Momo Havvo	Shayton
Hayz-u nifosga muhtalolik	Yer yuzi podshohligidan mahrumlik
Qursoq og'rig'i	Osmonning ulug'ligidan mahrumlik
To'lg'oq og'rig'i	Bihishtning xazinachiligidan mahrumlik
Erning xizmati	Ilohiy dargohdan mahrumlik
Erning hukmiga bo'ysunmoqlik	Farishtalik suratidan devlik suratiga kirish
Taloq urning ixtiyorida bo'lishi	Azozil otini Iblisga aylanishi



## ADABIYOTSHUNOSLIK

Meros ozgina bo'lishi	Kofirlarga bosh bo'lish
Guvohlikka yaramaslik	Tavbasini qabul qilmaslik
Noqis aql bo'lishi	Hech kishi uni do'st tutmasligi
Izzatdan mahrum bo'lish	Do'zaxning azobiga abadul-abad giriftor bo'lish
Vahiy ilohiylikdan Mahrumlik (ya'ni payg'ambarlikdan)	
Imomatlikka yaramaslik	
Namozi jumaga bormaslik	
Namozi iydga bormaslik	
Namozi janozadan mahrumlik	
Podshohlikdan mahrumlik	

Nega Momo Havvo va shaytonga jazo tariqasida turli illatlar berilgan bir paytda Odam alayhissalom chetda qoladi? Vaholanki, Odam alayhissalom ham taqiqlangan narsadan tatib ko'rgan edi-ku. Rabg'uziy Odamning jannatdan chiqarilishi uning uchun eng katta jazo ekanligini ta'kidlaydi. Shu sababli bu turdagi asarlarda kulminatsiya o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. "Asarning syujet – kompozitsion xususiyatlari bilan bog'liq holda kulminatsiya turli darajada va turli sifati ko'rinishida bo'lishi mumkin: konsentrik syujetlarda kulminatsiya bo'rtib ko'zga tashlansa, xronikali syujetlarda u qadar ochiq ko'zga tashlanmaydi" [7.146]. Masalan, "Qissasi Odam safiy alayhis-salom" qissasidan keltirilgan quyidagi parchada Odamning yaratilishi, so'ngra Momo Havvoning vujudga keltirilishi bilan bog'liq bo'lgan voqeaning berilishida kulminatsiya qisqa qilib beriladi: "Qachon Odamni ujmohg'a kivurdilar ersa ne'matlarin, hurlarin, qusurlarin ko'rdi, ammo o'ziga mengzayur kim ersa yo'q uchun ko'ngil to'lonmadin kaytek bo'lib ujmoh ichinda yurur erdi" "Savol: Havoni Odamdin uzog'li uyquli orasida yaratmoqg'a na hikmat erdi? Javob: Odam uzog' bo'lsa ayagusi og'rig'ay erdi. Ul sababdin Havvoni dushman tutg'ay erdi. Agar uziyur bo'lsa, o'zindin yaratilganin bilmasa, ani sevmagay erdi. Har oyina ul sevukrak bo'lg'ay" [3.18]. Bunday savol-javob orqali kulminatsiya sezilmas holga kelib qoladi. Yuqorida aytilganiday, ijodkor o'quvchining ichki ruhiy olamiga kirib boradi. Rabg'uziy tomonidan keltirilgan bunday hayotiy haqiqat keyinchalik badiiy haqiqatga aylantiriladi. Rabg'uziy buni quyidagicha bayon etadi: "Ayol etdan yaratilganiligi uchun tez qariydi, erkak esa tuproqdan yaralgani uchun ham tez-tez o'zgarib turadi". Agiografik asarlardagi bunday mantiqiy haqiqatlar keyinchalik ko'plab badiiy asarlar uchun asos vazifasini bajargan. Bu ham ijodkorning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. "Qisasi Rabg'uziy" asarida savol-javoblarning keltirilishi tugun va yechimning birmuncha soddalashuviga olib keladi, savol tugun bajargan vazifani bajarsa, yechim javobda namoyon bo'ladi. Muallif asar boshida ma'lum voqeadan so'ng savol qo'yib, mazkur savolga bitta javob bergan bo'lsa, ayrim qissalardagi voqea-hodisalardan so'ng keltirilgan savolga bitta emas, o'ntagacha javob berildi. Bunday yondashuv asarni tushunishni yengillashtiradi. Bu narsa "Qisasi Rabg'uziy" asarida yuqoridagi vositalar yo'q, degan tushunchaga olib kelmasligi lozim. Kulminatsiya, tugun, yechim va shu kabi vositalar yaxlit asar tahlilga tortilganda va alohida qissa tarkibida namoyon bo'ladi. "Ko'z nuri mengizlik Muhammad al-Mustafoning nuri Odamning oldinda qumiyur erdi to'lin oy mengizlik. Odam ul nurning yoruqliqin ko'rib, bu nurni man bir ko'rsam teb ko'sadi ersa izzu azza va jalla yorliqi birla ul nur Odamning olidin yangoqing'a indi" [3.18], "Qissasi Odam safiy alayhis-salom" qissasida keltirilgan mana shu voqea yaxlit asarning tuguni hisoblanadi. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida bu holni "Suratda senga ota, siyaratda senga farzand", – deya ta'riflaydi. Nur nima uchun Odam alayhissalomga berildi, Odam va Muhammad alayhissalom yashagan davr orasida ancha zamonning borligi, bu nur qanday qilib maqsadga yetib borishi tugunni tashkil qiladi. Bu butun asarning keyingi o'rinlarida voqealar rivoji uchun asos bo'ladi. Mazkur nurning barcha payg'ambarlardan o'tib, Muhammad alayhissalomning otasi Abdullohga, undan onasi Ominaga o'tishi asar boshida boshlangan tugunning eng so'nggi nuqtasi hisoblanadi. Butun boshli anbiyolar qissasi shu voqelar rivojida bayon etiladi. Qissa ichida qissa, hikoyatlarining berilishi umumiy syujetning shakllanishiga xizmat qilgan. Muhammad alayhissalomning tug'ilishi va bu nur onasi Ominadan o'g'li Muhammadga o'tishi asarning kulminatsiyasi hisoblanadi. Ko'plab kitobxonlar tomonidan asarning Muhammad alayhissalomga payg'ambarlikning berilishi va vafot etishi bilan bog'liq holatlarini asarning kulminatsiyasi deb hisoblaydilar, lekin biz bu fikrdan yiroqmiz. Asarning

oldingi boblarida keltirilgan barcha payg'ambarlar ham o'zlariga buyurilgan vazifa – qavmni ma'lum bir g'oya (din)ga da'vat etganlar hamda o'limlaridan oldin ko'plab nasihat va vasiyatlarni keyingi avlod uchun qoldirganlar. Ayrim vaqtlarda kulminatsiya boshqa boblardagi kabi shu bobning o'zigagina tegishli bo'lib, biz yuqorida keltirib o'tgan (Muhammad alahissalomning tug'ilishi) yaxlit asarning kulminatsiyasi hisoblanadi. Hattoki, keyingi davrda bu voqea asosida "Mavludnoma"lar yaratilgan. Asar kompozitsiyasining barcha sathlari: yaxlit matn va uning ichida alohida olinib tahlil qilinishi mumkin. Asar boshidan beri shakllanib kelgan tugunning "Qisasi valodati Muhammad rasulullohi sallallohu alayhi va sallam" bobida o'z yechimini topishi Muhammad alayhissalom va Jabroil o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat asnosida beriladi: "Yo axiy Jabroil, senmu yoshga ulug'mu, yo manmu?" Jabroil aydi: Yo Rasululloh, mana kendu yoshimni tajriba qilmishim yo'q, ammo yulduz bor, Nashrdamuq o'tlig'. O'tuz ming yilda bir tug'ar. Aning o'tuz ming yo'li tug'ganin ko'rubman". Rasul aydi: "Mening yoshim sandin ulug' ermish, aning uchunkim qamug'din burunroq maning nurimni Mavlo taollo yaratdi", ijodkor tomonidan keltirilgan bu suhbat olam va odam nima sababdan yaratilganligi va ularning yaratilishi uchun sabab bo'lgan shaxs Muhammad alayhissalom ekani yechim sifatida qabul qilinsa, to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Yechimdan so'ng voqealar rivoji keskin o'zgarib ketadi, asardagi asosiy konfliktlar aynan shu voqeadan so'ng beriladi. Oldingi qissa va hikoyalarning ichida kelgan kichik va u qadar sezilmaydigan konfliktlar "Qisasi valodati Muhammad rasulullohi sallallohu alayhi va sallam" bobidagi konfliktlar uchun zamin yaratishga xizmat qilgan. Keyingi boblarda keltirilgan barcha konfliktlar Muhammad alayhissalomga da'vat qilish buyurilgan islom dinini yoyish mobaynida yuzaga keladi. Bungacha bo'lgan davrda yuz bergan voqea-hodisalar ko'plab muammolarga o'ziga xos yechim vazifasini bajaradi: "Do'stim Muhammad hech kimga o'xshamasin. Quvvatda ham payg'ambarlardan yaqin bo'lsin. Odam Atoni bir gunohi bilan jannatdan chiqardim. Do'stim Muhammadning ummatlarini bir tavba bilan jannatga kirgizarman. Nuh alayhissalomning kemasini suvda yurgizdim. Do'stim Muhammadni Buroq bilan osmonda yurgizdim... Ibrohim alayhissalomni Namrudning o'tidan asradim, o'tini sovutdim. Ammo Muhammad sollallohu alayhi vasallam ummatlariga do'zax o'tini sovutaman" [3.258]. "Muhammad mustafo sollallohu alayhi vasallamning fazilatleri" bobida keltirilgan mazkur fikrlarni anglash uchun boshqa payg'ambarlar qissasi bilan tanish bo'lishi kerak. Buning sababi sahobalar tomonidan sodir etilgan gunoh va ma'siyatlarning yechimi sifatida oldingi payg'ambarlar qissalari keltiriladi. Kechiktirilgan ekspozitsiya (asarda yechimdan so'ng beriladi) orqali Rabg'uziy bevosita Qur'on va hadisga tayanib, voqealarni davom ettiradi. Buni asarning yuqorida keltirib o'tilgan bobidan so'ng, Qur'on va hadisdan eng ko'p keltirilgan misollarni aynan shu boblarda ko'rish mumkin. Muhammad alayhissalom bilan ro'y bergan voqea-hodisalardan keyin oldingi qavmlarning hayoti ibrat sifatida Qur'onida keltirilgan. Rabg'uziy bundan samarali foydalangan holda, voqealardan kelib chiqadigan xulosa sifatida oyatlarni ko'pincha qissa oxirida keltiradi. Bu orqali ijodkor kitobxonning ruhiy olamiga kirib boradi.

### XULOSA

Payg'ambarlar hayoti va faoliyati bilan bog'liq boblarda Rabg'uziy badiiy qoliplashdan mahorat bilan foydalangan va bularning ko'pi kichik hikoyatlar tarzida beriladi. Natijada, asarni yaxshiroq tushunib olishga bo'lgan imkoniyati oshgan. "Luqmong'a xojasi aydi: "Borg'il, bir qo'y bo'g'uzlab, etidin qayu yaxshiroq ersa, manga kelturgil. Qo'yni bo'g'uzladi, tili birla yurakin olib keldi. Xojasi so'rди: "Bularni naluk kelturdung?" Aydi: "Qo'yda tildin, yurakdin yaxshiroq yo'q. Agar yovuz ersa tildin, yurakdan yovuzroq yo'q" [3.75]. Kiritma voqealarning berilishida Rabg'uziyning xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor ekanligi ham ma'lum bo'ladi. Asarda keltirilgan hikoyatlardan keyingi davrlarda didaktik asarlarning yaratilishida keng foydalanilgan holda qoliplovchi hikoya sifatida bayon etiladi. Bu hikoyaning keltirilishiga sabab imon til bilan aytilganda hamda qalban tasdiqlanganda e'tiqod mustahkam bo'lishiga ishora qilinmoqda.

Ko'plab "Qisas ul-anbiyo" kabi asarlarda voqealar Muhammad alayhissalom vafot etishi orqali yakunlanadi. Rabg'uziy bunday an'anadan chetga chiqqan holda Muhammad alayhissalom vafot etgandan so'ng voqealarni to'xtatmay, uning izdoshlari "Chahoriyorlar" (to'rt xalifa) hamda nabiralari – Imom Hasan va Husaynlar haqida ham to'xtalib o'tgandan so'ng xotima qismini she'riy tarzda yakunlaydi:

Avvali Odam Atomiz, oxiri xotami Rasul,  
Bu tuzuk birla tuzuldi anbiyo mursal to'zdi.

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

To'rttagu otlig' sahoba, ikki sihr, ikki xotin,  
So'ngar maqtal zikri birla to'ldi qissa to'g'uzi.  
O'zgalar ko'p olamunchuq tuzdilar el tizginib,  
Man guhar, dur, yinju tuzdim kezmadim yobon yozi [3.216-217].

Rabg'uziy so'ngso'zda muqaddimada aytilgan maqsadini to'liq amalga oshirganini alohida ta'kidlab, yakuniy fikrni bayon etadi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotimiz tarixidagi dastlabki yirik agiografik asar bo'lmish "Qisasi Rabg'uziy" o'zining mukammal tuzilishi va badiiy jihatdan puxtaligi bilan Sharq agiografiyasining betakror namunasi hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
2. Raxmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asning birinchi yarimigacha). – Toshkent: Sano-standart, 2017.
3. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1 китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990.
4. Курбаниязов М. XIV аср ўзбек адабиётида ҳикоя жанрининг тараққиёти ("Қисаси Рабғузий" мисолида). Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Ислон энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
7. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013.
8. Кароматов Ҳ. Хўрланган пайғамбарлар ғалабаси. – Тошкент: Фафур Ғулмон номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
9. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. док... дисс. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети. – Тошкент, 2020.
10. Курьони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом институти, 2004.
11. Қўшжонон М. Ҳаёт ва нафосат. – Тошкент: 1970.
12. Пардаева И. Алишер Навоий тарихий асарлари бадиияти. Филол. фан. б. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2018.